



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 10-fevral, № 31 (8654)

Shanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA BELARUS YETAKCHILARI "AMIRSOY" TOG'-CHANG'I MAJMUASIDA UCHRASHUV O'TKAZDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko "Amirsoy" tog' dam olish maskaniga tashrif buyurdilar.

Toshkentda bo'lib o'tgan muzokaralarda davlat rahbarlari madaniy-gumanitar yo'nalishda, shu jumladan, sport va turizm sohaslarida faol almashinuvlarni davom ettirishga kelishib oldilar. Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunida boshqa hujjatlar qatorida 2024-2025-yillarda Sport sohasida hamkorlik bo'yicha dastur va Turizm sohasida hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar rejasini imzolangan edi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda sport va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirildi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi

"Amirsoy" tog' dam olish maskani shular jumlasidan. Oxirgi uch yilda bu yerga 4 millionga yaqin sayyohlar kelgan.

Jahon darajasidagi har mavsumga mos ushbu majmuaga tashrif davomida davlat rahbarlari sportchilar va sayyohlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar, ikki mamlakat o'rtasidagi turizm almashinuvini kengaytirish yuzasidan fikr almashdilar.

Yetakchilar samimiy muloqotni tog'-chang'i trassasida davom ettirib, birgalikda chang'i uchdilar.

O'ZA.

SHE'RIYAT MULKIINING ULUG' SIYMOSIGA EHTIROM

Mamlakatimizda Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi keng nishonlanmoqda.

9-fevral kuni erta tongdan poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida so'z bo'stonining muazzam chinori, behad go'zal va sermazzun asarlari bilan nomini abadiyatga muhrlagan mutafakkir, adabiyot chamanining ulug' siymosi Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan tadbir munosabati bilan ziyolilar, navoiyshunoslar, xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar, adabiyotshunos olimlar, shoir-yozuvchilar, talaba-yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari shoir haykali poyida jam bo'ldi.

Shukuh

Adabiyot bayrami avvalida ko'rgazmasi tashkil qilindi. Xiyobon hazrat Navoiy ijodiga oid kitoblar ichra har tomondan yangrayotgan

mumtoz navolar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashib, ulug' mutafakkir so'zini, g'oyalari yana bir karra anglashga chorladi, desak, yangilishmaymiz.

Tadbirda so'zga chiqqanlar yurtimizdagi adabiy islohotlarda Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, keng targ'ib etish va xorijiy tillarga tarjima qilishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham



Videolavhada ko'ring



shoir ijodini o'rganuvchilar safi ortdi, ilmiy-badiiy kitoblar yaraldi, asarlari ko'plab tillarga tarjima qilindi.

Xususan, ozarbayjonlik navoiyshunos olimlar — Olmos Ulviyning ozar tilida "Alisher Navoiyning asri va nasri" risolasi

o'quvchilar qo'lga yetib borishi, Romiz Asqar tomonidan esa Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahub ul-qulub" asarlari ozarbayjon tiliga to'liq o'g'irilib, Bokuda chop etilgani so'zimizni tasdiqlaydi.



Dunyo nigohi

O'ZBEKISTON VA BELARUS O'ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI CHUQURLASHTIRISHGA INTILMOQDA

Xorijiy tahlilchilar Toshkentda bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston — Belarus sammiti yakunlari haqida.

Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlatning ko'p qirrali o'zaro manfaatli hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlashga intilishidan dalolat beradi, deya ta'kidlamoqda xalqaro ekspertlar.

Jan-Antuan DYUPRA, Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti, O'zbekiston bo'yicha mutaxassis (Fransiya):



— Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan buyon ochiq tashqi siyosat olib boryapti. Bu esa mamlakatga Markaziy Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalarida tobora muhim barqarorlashtiruvchi geosiyosiy rol o'ynash imkonini bermoqda.

Davlatimiz yetakchisining taklifiga binoan Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning Toshkentga rasmiy tashrifi O'zbekistonning pragmatik tashqi siyosat olib borayotganini namoyon etadi.

Ikki davlat rahbarlari va

delegatsiyalar o'rtasidagi muzokaralarda davlatlararo munosabatlarning barcha yo'nalishi, jumladan, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, fan va ta'lim, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, kelgusi yillarda bu ko'rsatkichni 1 mlrd. dollardan ortiqroqqa yetkazish rejalashtirilgan.

Mintaqaviy va global kun tartibiga kelsak, O'zbekiston va Belarus mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirayotganini alohida ta'kidlash joiz.

O'zbekiston — Belarus oliy darajadagi uchrashuvi mustahkam hujjatlar to'plamining imzolinishi bilan yakunlandi, bu tomonlarning ko'p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirishga intilishidan dalolat beradi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

2024-yil 9-fevral kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni Oliy Majlis

Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning yalpi majlisida dastlab "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik

subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida'gi qonun ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish doirasida kambag'allikni qisqartirish hamda kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlari va preferensiyalar, xususan, soliqni bo'lib bo'lib to'lash imkoniyatini berish hamda pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali tadbirkorlik subyektlarini kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarga faol jalb qilish maqsadga muvofiq.



Qisqa satrlarda

OLIMA AYOLLAR FORUMI

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tomonidan "O'zbekiston olimlari ayollarining xalqaro maydondagi o'rni" mavzida forum tashkil etildi.

Unda fan va texnikaning turli yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot olib borayotgan olim ayollarning amalga oshirayotgan ilmiy loyihalari natijalari va xalqaro darajadagi yutuqlari muhokama markazida bo'ldi.

BUXORO VA BREST VILOYATLARI HAMKORLIGI

Belarus Respublikasining Brest viloyati delegatsiyasi "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasida hududida faoliyat yuritayotgan korxonalar, shuningdek, Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, viloyat hokimi bilan uchrashuv chog'ida ikki hudud o'rtasida investitsiyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va aloqalarni chuqurlashtirish imkoniyatini ko'rib chiqildi.

NAVOIY MEROSI — MILLAT XAZINASI

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasida buyuk shoir va mutafakkir, atqoli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Anjumanda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tildi.

BURSADA O'ZBEK TILI VA MADANIYATI MARKAZI OCHILDI

Turkiyaning qadimiy Bursa shahridagi Uludag' universitetida Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va madaniyati markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda qayd etilganidek, ushbu markaz ikki mamlakat o'rtasidagi madaniyatni yaqinlashtirish, ta'lim muassasalarining o'zaro tajriba almashishida muhim o'rin tutadi.

"Xalq so'zi" va O'ZA muxbirlari xabarlari asosida tayyorlandi.

Muloqot

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi R. Alimov boshchiligidagi O'zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasi Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrif buyurdi.

Mazkur tashrif AQSH Kongress kutubxonasi qoshidagi parlament diplomatiyasini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan "Ochiq dunyo" yetakchilik markazi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Senatorlar va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari AQSH Kongressida amerikalik hamkasblari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi hamda Vayoming shtatida bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati bilan tanishdi.

Muloqotlar chog'ida AQSH tomoniga O'zbekistonda inson

huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini, davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, xususiy mulk va xorijiy investitorlarni himoya qilish, shuningdek, iqtisodiyotni liberalashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Kongress a'zolari T. Kelli, V. Gonsales, K. Miller bilan bo'lib o'tgan muloqotda ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari hamda

"O'zbekiston bo'yicha Kokus" doirasidagi o'zaro hamkorlik, jumladan, parlamentlararo aloqalarni yanada faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Suhbat davomida ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, AQSH Kongressi Vakillar palatasining boshqa qo'mitalari a'zolarini Kokus faoliyatiga jalb etish masalalariga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tomonlar ixtisoslashtirilgan qo'mitalar va ikki mamlakat parlamentlari palatalari devonlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish orqali hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan fikr almashdi.

"Xalq so'zi".

Eshituv

OMBUDSMANNING O'TGAN YILDAGI FAOLIYATI QANDAY BO'LDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi hamda Inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo'yicha Parlament komissiyasining kengaytirilgan yig'ilishi o'tkazildi.

Parlament komissiyasi a'zolari, tegishli vazirlik va idoralarning mas'ullari, deputatlar hamda jurnalistlar ishtirok etgan yig'ilishda Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti eshittildi.

Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Parlament komissiyasi raisi A. Saidov yig'ilishni ochar ekan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini

yanada takomillashtirish, bu yo'nalishda parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish, inson huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yilda Ombudsman o'z faoliyatini yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan



O'ZBEKISTON VA BELARUS O'ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI CHUQURLASHTIRISHGA INTILMOQDA

Ditrix FETCH, "ESGholding" kompaniyasi hammuassisi va direktorlar kengashi a'zosi (Germaniya):

— So'nggi yillarda O'zbekiston — Belarus hamkorligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, hamkorlikda foydalanilmagan zaxiralarning keng ulqarini ochish imkonini berdi.



Bu, eng avvalo, ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko o'rtasida yo'lga qo'yilgan faol va ochiq siyosiy muloqot natijasidir. Belarus Prezidentining Toshkentga rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat rahbarlari barcha darajada, jumladan, xalqaro tuzilmalar — BMT, MDH, SHHT, shuningdek, hukumat rahbarlari, parlament a'zolari, vazirliklar va viloyatlar miqyosida ko'p qirrali muloqotni mustahkamlashga kelishib oldilar.

Samarali muzokaralar natijasida ikki davlat rahbarlari Qo'shma bayonot qabul qildilar. Shuningdek, O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan aniq harakatlar rejalari belgilab olindi. Ularda barcha darajadagi aloqalarni faollashtirish, savdo aylanmasini oshirish, hamkorlik loyihalari, madaniy-gumanitar almashinuv va boshqalar nazarda tutilgan.

Belarus bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. O'tgan yili mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatilganiga 30 yil to'ldi. Ushbu tarixiy davrda O'zbekiston va Belarus chinakam yaqin, ishonchli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga erishdi. O'zbekiston va Belarus yetakchilarining Toshkentda bo'lib o'tgan samarali va do'stona uchrashuvi ko'p qirrali hamkorlik rivojiga yangi sur'at bag'ishlaydi, deb o'ylayman.

Chve Yon XA, Sunmun universiteti professori, Koreya Respublikasining O'zbekistondagi sobiq elchisi:

— Ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvi Toshkent va Minskning davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish kabi qator dolzarb yo'nalishlar bo'yicha qarashlari yaqinligini yana bir bor namoyon etdi.

Ishonchim komilki, bugungi global inqiroz davrida har ikki davlat rahbarlari mintaqaviy va jahon kun tartibini, ikki mamlakatning integratsiya tuzilmalari hamda xalqaro maydondagi o'zaro hamkorligini yanada batafsil muhokama qildilar.

O'zbekistonga tashrif arafasida o'tkazilgan Hukumatlararo komissiya, Hududlararo forum, Ishbilarmonlar kengashi, Oliy o'quv yurtlari va tibbiyot muassasalarining rektorlari forumi kabi qator tadbirlar o'zining samarali mevasini berdi. Natijada tomonlar o'rtasida energetika va sanoat, qishloq xo'jaligi, madaniyat, fan, ta'lim, sport va turizm kabi ustuvor yo'nalishlarga oid 15 dan ortiq hujjatlar imzolandi.

Xususan, "2024-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini" alohida e'tiborga loyiqdir. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirishga yordam beradi.

Yan BO, Shaxay chet tillar universiteti huzuridagi Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi direktori o'rinbosari:

— O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni

izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatlar xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlab, mintaqalararo va ko'p tomonlama platformalarda, jumladan, BMT, MDH, SHHT, Qo'shilmalik harakati doirasida samarali hamkorlik qilyapti. Ikki mamlakat rahbarlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni esa samarali davlatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Shuningdek, Belarus Prezidentining O'zbekistonga ushbu tashrifi chog'ida tovarlarni elektron sertifikatlashtirish, ilmiy-ishlab chiqarish kooperatsiyasi, energetika, madaniyat va san'at, ta'lim kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oluvchi mustahkam kelishuvlar to'plami imzolandi.

O'zbekiston va Belarus o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik izchil mustahkamlanmoqda. Savdo aylanmasi 2023-yil oxirida 2022-yildagiga nisbatan 15 foiz oshdi.

Ikki mamlakatning yetakchi korxonalari o'rtasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida aloqalar kengaygan. Farmatsevtika, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilyapti. Ishbilarmon doiralari va yetakchi korxonalar o'rtasidagi aloqalar ham mustahkamlanmoqda.

Tashrif chog'ida erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Belarus an'anaviy infratuzilmani rivojlantirish barobarida yangi transport-logistika yo'nalishlarini yaratish, tashqi savdoni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish zanjirlarini tiklash yo'llarini birgalikda izlash bo'yicha hamkorlikda ish olib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Muhammad Tolib Bin Mohamad Raja MOHAN, Islom hamkorlik tashkilotining Malayziyadagi Xalqaro ishbiarmonlik markazi bosh ijrochi direktori:

— O'tgan yillar davomida O'zbekiston — Belarus ko'p qirrali munosabatlari sifat jihatdan yangi, yuksak bosqichga ko'tarildi. Xususan, oliy va yuqori darajadagi muloqot faollashdi. Ishbilarmonlar kengashi va hududlararo forum mexanizmlari yo'lga qo'yildi, ikki mamlakatning yetakchi korxonalar o'rtasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida aloqalar kengayib bormoqda.

Shu o'rinda mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qiziqarli tajribaga e'tibor qaratmoqchiman. Keyingi yillarda qo'shma korxonalar soni 4 barobar ortgani quvonarli. Bu, albatta, yangi ishlab chiqarishlar tashkil etish va ularni mahalliyashtirish, ish o'rinlari yaratish, yangi bozorlarni o'zlashtirishni rag'batlantirmoqda.

Tomonlarning qo'shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuvi va O'zbekiston Prezidentining respublikada "BeIAZ" rusumli avtomashinalarni hamkorlikda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish taklifi alohida e'tiborga loyiqdir.

Shu bilan birga, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik va kommunikatsiya sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Muxtasar aytganda, ushbu tashrif o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan O'zbekiston — Belarus hamkorligining butun spektrini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Gaurav GUPTA, Hindiston Global savdo va texnologiyalar kengashi prezidenti:

— So'nggi yillarda O'zbekistonning xalqaro munosabatlarida ko'zga yaqqol tashlanayotgan jihat, bu amaliy qo'shma loyihalar hayotga joriy etish va o'zaro hamkorlikning amaliy natijalariga erishish bo'yicha qilinayotgan tizimli sa'y-harakatlardir. Bu O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro safarlari va xorijiy davlatlar rahbarlarining Toshkentga tashriflari chog'ida izchil kuzatilmoqda.

Belarus Prezidenti tashrifi doirasida ikki mamlakat ishbiarmon doiralari vakillarining amaliy muloqotlari, hududlar, oliy o'quv yurtlari rektorlari, tibbiyot xodimlari forumlari tashkil etilgan, qishloq xo'jaligi, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik, kommunikatsiyalar va boshqa o'zaro manfaatli yo'nalishlardagi aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilingani ham hamkorlikning amaliy jihatlarga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat.

2023-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshgani, so'nggi yillarda qo'shma korxonalar soni 4 barobar ko'paygani ham e'tiborga molik ko'rsatkichlardir.

Payshanba kuni Toshkentda imzolangan salmoqli hujjatlar to'plami, jumladan, O'zbekiston va Belarus hududlari ikkinchi forumi yakunida qiymati 1 mlrd. dollardan ziyod shartnoma va bitimlarga erishilgani ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga yangicha mazmun baxsh etadi va amaliy sa'y-harakatlar samaradorligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Muhammad Yaqub SHAYX, Pokiston Senati a'zosi:

— Belarus Prezidentining O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, uchrashuvning birinchi kunida ikki davlat rahbarlari "Humo Arena" muz saroyiga tashrif buyurib, Toshkentning "Humo" va Ostonaning "Nomad" xokkey jamoalari o'rtasidagi uchrashuvni tomosha qilish anasoda samimiy, do'stona va norasmiy ruhda muloqot o'tkazgani ham chuqur ramziy ma'noga ega va ular o'rtasidagi ishonchli munosabatdan dalolat beradi.

O'zbekiston va Belarus rahbarlarining diqqat markazi davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirishga qaratilgan. Belarus Prezidentining tashrifi doirasida Hukumatlararo komissiyaniy davlatdagi majlisi, mintaqalar forumi va boshqa tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi, uning natijasida umumiy qiymati 1 mlrd. dollardan ortiq shartnoma va kelishuvlar imzolandi.

Muzokaralar chog'ida davlat rahbarlari qishloq xo'jaligi, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik va boshqa sohalaridagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldilar. O'zbekiston va Belarus rahbarlari o'zaro tovar ayirboshlash hajmini milliard dollardan ortiq darajaga yetkazish vazifasini qo'yd.

Markaziy Osiyo va MDH davlatlari yo'nalishida faoliyat yurituvchi transport-logistika kompaniyasi rahbari sifatida mamlakat rahbarlarining yuk

tashish uchun o'zaro qulay shart-sharoitlar yaratish va yuk tashish yo'nalishida Janubiy Osiyo bozorlari multimodal koridorlaridan samarali foydalanish to'g'risidagi qarori meni juda quvontirdi. Biz bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz va qo'shilishga tayyormiz.

Andrey GROZIN, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi:

— Tashrifni har ikki tomon uchun ham juda muvaffaqiyatli, deb talqin qilish mumkin. Bu ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi qanday ohangda o'tgani bilan izohlanadi. O'zbekiston va Belarus rahbarlari o'rtasida do'stona, o'ta iliq munosabatlarni mavjudligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Tashrif yakunlari bo'yicha imzolangan kelishuv va bitimlar turizm, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat sohalaridagi hamkorlikdan tortib, ishlab chiqarish, energetika, transport va hokazo bilan bog'liq amaliy masalalargacha bo'lgan juda keng qamrovga ega.

Ushbu chuqurlashtirib borayotgan sheriklik bugungi qiyin vaziyatda jadal rivojlanmoqda. Chunki iqtisodiy va boshqa sohalarida xalqaro raqobatning kuchayishi har qanday xalqaro munosabatlar uchun juda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda Toshkent yangi transport yo'laklarini qurish va mustahkamlash strategiyasini maqsadli ravishda amalga oshiryapti.

Aholi soni bo'yicha sobiq ittifoq hududida amalda ikkinchi davlatga aylangan O'zbekiston jadal sur'atlar bilan mintaqaning asosiy transport markaziga aylanib bormoqda. Toshkent ishtirokisiz esa hech qanday yirik jiddiy loyihalar amalga oshirilmaydi.

Karligash ASHIRXANOVA, Xalel Dostmuhammedov nomidagi Atirau universitetining xalqaro aloqalar va baynalmillalashtirish bo'limi boshlig'i:

— Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston va Belarus yetakchilarining uchrashuvi, haqiqatan ham, zamonaviy geosiyosiy dinamik sharoitda muhim voqeadir. Mutaxassislarning bo'lib o'tgan O'zbekiston va Belarus yetakchilarining uchrashuvi, haqiqatan ham, zamonaviy geosiyosiy dinamik sharoitda muhim voqeadir.

qayd etishicha, ikki davlat o'rtasida hamkorlikning yangi yo'nalishlari yo'lga qo'yilgani nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy nuqtayi nazardan ham muhim qadam hisoblanadi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik dinamikasi va qo'shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish hamda eksport-import yetkazib berishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kabi erishilgan kelishuvlar fonida ikki davlat o'zaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirishga intilayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu odimlar do'stona munosabatlarni mustahkamlashga, turli sohalaridagi kelgusiz hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ikki mamlakat Prezidentlarining uchrashuvi o'zaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirishga va mustahkam aloqalarni o'rnatish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

"Dunyo" AA.

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning mamlakatimizga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bilan ahamiyatli.



O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Botir Mardayev** Belarus Respublikasi oziq-ovqat, mashinasozlik, elektrotexnika sanoati, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi sohalarida jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biri ekanini, ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar xalqlarimiz turmush farovonligining yanada yaxshilanishiga, umumiy maqsadlarga erishishda hamda mintaqada tinchlik va barqarorlik mustahkamlanishiga xizmat qilishini qayd etdi.

"Biz, deputatlar parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirishga, qonun ijodkorligi, parlament nazorati faoliyati borasida tajribalar almashinuvining yanada rivojlantirilishiga hamisha tayyormiz", dedi deputat.

"Milliy tiklanish" DP

Yaqinda Qonunchilik palatasi majlisida qishloq xo'jaligidagi yerlarni ikkilamchi ijaraga berish tartibini joriy etishga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokama qilingan edi. Munozara jarayonida "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi **G'ayrat Safarov** loyihadagi ayrim normalarga qarshi ekanligini ma'lum qildi.



"Qonun loyihasida yo'l chetidagi va kollektor-drenaj atrofidagi yerlarni 10 yilgacha muddatga ikkilamchi ijaraga berish ruxsat etilayotgan norma qayta ko'rib chiqish zarur. Kollektor-drenajlarga har ikki yilda bir marta mexanik holatda ishlov berib turish kerak. Agar u joylar ijaraga beriladigan bo'lsa, foyda olishni ko'zlab ijaraga olgan shaxs yerning texnik va meliorativ holatiga yetarlicha e'tibor qaratmasligi mumkin. Shu bois ushbu norma qabul qilinishiga konseptual jihatdan qarshiman", dedi deputat.

"Adolat" SDP

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasida deputatlar korpusi faol ishtirok etib, bir qator takliflarni ilgari surmoqda.



"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Inomjon Qudratov** siyosiy partiyalarni moliylashtirishga oid qonunchilikni qayta ko'rib chiqish masalasiga e'tibor qaratadi.

"Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga siyosiy partiyadan saylangan deputatlar boshqa lavozimga o'tkazilishi natijasida fraksiya a'zolarining soni qisqarishi tabiiy. Amaldagi qonunchilikdagi fraksiya a'zolarining soni kamayishi partiyalarga ajratilayotgan mablag'larning qisqarishiga sabab bo'ladi. Bu mexanizmdan voz kechish kerak. Zotan, partiyadan saylangan deputatlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishidan partiya ham moddiy, ham huquqiy jihatdan manfaatdor bo'lishi lozim", dedi deputat.

O'zXDP

Quyil palataning yaqinda bo'lib o'tgan majlisida deputatlar O'rmon xo'jaligi agentligi direktori Nizomiddin Bakirovning "O'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish holati to'g'risida"gi axborotini eshitgandi.



Muhokama davomida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Qizilgul Qosimova** chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning manfaatlarini himoya qilib, ayrim takliflarni bildirgandi.

"Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qariyb 25 ming gektar maydon O'rmon xo'jaligi agentligiga o'tkazilgan va 2023-yilning 15-martidan boshlab bu maydonlarda chorva mollari boqish taqzilangan. Mahalliy aholi, asosan, chorvachilik va bog'dorchilik bilan daromad topishini hisobga olib, aholi punktlariga yaqin joydagi yaylovlarning bo'sh qismini aholiga ikkilamchi ijaraga berish masalasini o'ylab ko'rish kerak. O'rmon xo'jaligi yoki daraxtlarga zarar yetkazmaslik sharti bilan har bir qoramolning sonidan kelib chiqib, o'zaro shartnoma tuzish yo'li orqali ijaraga berilishi yo'lga qo'yilsa, ayni muddao bo'lardi", dedi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

"Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvonlarning muhofazasi kuchaytirilishini nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokamasida jarayonida hayvonlar ovlanishini chekllovchi yo'li taqzilovchi normalar yetarli darajada shakllantirilmagani ayrim e'tirozlariga sabab bo'lgandi.



Bu bo'yicha mas'ul qo'mita raisi, Ekopartiyasi fraksiyasi rahbari **Xayrullo G'afarov** Vazirlar Mahkamasining o'tgan yili qabul qilingan tegishli qarorida yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlarni tabiiy muhitdan noqonuniy ravishda ajratib olish uchun belgilangan jazo choralarini yanada kuchaytirilganini, shu bois qonun loyihasini taqdim etgan vazirlik ushbu normalarni qonunda aks ettirmaslik xulosasiga kelganini ma'lum qildi.

"Deputatlar qonun loyihasini birinchi o'qishda konseptual jihatdan qo'llab-quvvatlab bergan taqdirda uni ikkinchi o'qishga tayyorlashda bildirilgan takliflar asosida takomillashtiramiz", dedi qo'mita raisi.

OMBUDSMANNING O'TGAN YILDAGI FAOLIYATI QANDAY BO'LDI?

Deputatlar Ombudsmaning o'tgan yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha taqdim etilgan hisobotni tinglar ekan qiynoqqa solish, shafqatsiz, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlari o'q'lanilinishing oldini olish maqsadida o'tkazilgan monitoringning soni va sifati o'sib borayotganini alohida e'tirof etdilar. Chunki qiynoqlarni aniqlash, ularning oldini olish maqsadida Ombudsman va Jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan maskanlarga 603 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirilgan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil F. Eshmatovning aytishicha, Ombudsman tomonidan nafaqat harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan maskanlarga 603 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirilgan. Inson huquqlari bo'yicha vakil F. Eshmatovning aytishicha, Ombudsman tomonidan nafaqat harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan maskanlarga 603 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirilgan.

Qo'mita a'zolari 2023-yilda Ombudsman fuqarolarning ijtimoiy huquqlari kafollanishini hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash borasida amalga oshirilgan ishlar, bu yo'nalish

bo'yicha kelib tushgan 3586 ta murojaatning salmoqli qismi ijobiy hal etilganini alohida qayd etdilar. Shu bilan birga, Inson huquqlari bo'yicha vakilning qiynoq holatlarining oldini olish, inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha monitoring va huquqiy tahlil hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha faoliyati ijobiy baholandi.

Qizg'in muhokama davomida deputatlar tomonidan bir qator savollar o'rtaga tashlandi. Xususan, deputat Qodir Jo'rayev chet ellarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasida mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarimizning huquqlarini va ijtimoiy kafollatlarini ta'minlash, zarur hollarda ularga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston va Rossiya ombudsmanlari o'rtasida hamkorlik qay darajada yo'lga qo'yilgani bilan qiziqdi.

F. Eshmatova o'z javobida Inson huquqlari bo'yicha vakil 2023-yilda Rossiyaga tashrif buyurib yerdan yashayotgan yurdostlarnimiz bilan uchrashgani, ularning yashash sharoitlari va muammolarini o'rganганиni ma'lum qildi. Ikki davlat o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilib, murojaatlarni birgalikda ko'rib chiqish bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotganini qayd etdi.

Deputat Mavjuda Hasanova esa Ombudsman tomonidan 2023-yilgi "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirilgani bilan qiziqib, hisobot yilida

fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar soni ortganiga izoh so'radi.

Ombudsman tomonidan o'tgan yilgi davlat dasturi asosida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish, inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida keng ko'lami ishlar ro'yobga chiqarilgani, murojaatlar sonining oshgani esa fuqarolarning Ombudsman institutiga ishonchi ortib borayotganidan dalolat ekanini qayd etdi.

Muhokama davomida Ombudsman faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolarning yangi tahrirdagi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda kafollatlarining huquqlari, erkinliklarini ta'minlash, ushbu sohada NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, deputatlarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlar yuzasidan Ombudsmaning mintaqaviy vakillari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, Xalq qabulxonalarini bilan birgalikda mintazam ish olib borish, murojaatlar eng ko'p tushgan tumanlarda sektor rahbarlari bilan uchrashuvlar tashkil etish, murojaatlarning sabablari bilan qiziqish lozimligi ta'kidlandi.

Yig'ilish yakunida ko'rib chiqilgan masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Seminar

Ilm-fan rivojida xotin-qizlarning o'рни

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida "O'zbek ilm-fan rivojida xotin-qizlarning o'rnini, analar va tajribalar" mavzuida respublika seminari tashkil etildi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida o'tkazilgan anjumanda xotin-qizlar qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish va bandligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar xususida so'z yuritildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda yurtimizda opa-singillarimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning barcha jabhada faolligini oshirishga qaratilgan tizimli sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Natijada xotin-qizlar, boshqa sohalarida bo'lganidek, ilm-fan yo'nalishida ham o'zlarini namoyon etmoqdalar. Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan ayollar soni oshib borayotgani buning yaqqol tasdiqidir.

O'z navbatida, tadbirda olimlari ayollarning jamiyat rivojida o'rini yanada yuksaltirish va buning uchun ko'proq shart-sharoit yaratish kerakligiga ham urg'u berildi.

Zilola XOLTO'RAYEVA, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliqlik kodeksiga tadbirkorlik subyektlariga ular yaratgan yangi ish o'rinlari soniga qarab tegishli soliqlarni muayyan muddatlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishini, shuningdek, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i pasaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lanishini nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, Kodeksda ko'zda tutilgan qo'shilgan qiymat, foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari barcha soliqlarni ular yaratgan yangi ish o'rinlari soniga qarab bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilmoqda. Jumladan:

— 51 tadan 100 gacha yangi ish o'rni yaratilganda — uch oygacha;

— 101 tadan 200 gacha yangi ish o'rni yaratilganda — olti oygacha;

— 200 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratilganda — o'n ikki oygacha, etib ifodalandi.

Shuningdek, "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolarga ishga qabul qilingan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i va yer solig'idan imtiyoz berilmoqda. Bunda soliq imtiyoz miqdori, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi ish o'rinlari sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdordalarda belgilandi:

— 51 tadan 100 tagacha yangi ish o'rni yaratilganda — belgilangan soliq stavkasining 50 foizi;

— 101 dan 200 tagacha yangi ish o'rni yaratilganda — belgilangan soliq stavkasining 75 foizi;

— 200 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilganda esa — ushbu soliqlarni to'lashdan ozod etildi.

Korxonaga qabul qilingan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolarga kamida 1 yil davomida har oy mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan ish haqini to'lab, bandligini ta'minlashi kerak.

Senatorlar ta'kidlaganidek, ushbu qonun aholi bandligini o'shishga, kambag'allikni qisqartirishga hamda kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ishga qabul qilishda tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikrooliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qonun bilan Fuqarolik kodeksiga va "Nobank kredit tashkilotlari va mikrooliyaviy xizmatlar faoliyati to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fuqarolik kodeksiga kiritilayotgan qo'shimchalarga asosan aholi va

tadbirkorlarga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo'yicha amalga oshirilgan to'lov summasi, agar qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzi belgilangan tartibda undiriladi.

Eng avvalo, asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlarini mutanosib ravishda uziladi. So'ngra joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik so'ndiriladi. Uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya)lar va keyingi navbatda kreditning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari undiriladi.

Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksiga kredit bo'yicha qarzdorlikni va hisoblangan foizlarni undirish haqida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda mazkur kredit bo'yicha foizlar, shuningdek, neustoyka hisoblanishi to'xtatilishiga oid o'zgartirish va qo'shimcha kiritilmoqda.

Bundan tashqari, "Nobank kredit tashkilotlari va mikrooliyaviy xizmatlar faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ham o'zgartirish kiritilayotgan bo'lib, unga ko'ra jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga ajratiladigan mikroqarz miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mga oshirilmoqda.

Senatorlarning ta'kidlashicha, qonun aholi va tadbirkorlarga mikroqarz yoki kredit olib foydalanish jarayonlarini kengaytirishga, ular tomonidan kreditlarni qaytarish qobiliyati yaxshilanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, aholini va tadbirkorlarning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan birga ularning ishchanlik faolligini oshirishga va ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng senatorlar ushbu qonunning dolzarbligi va zarurligini e'tiborga olib, uni ma'qulladilar.

Shuningdek, yalpi majlisda senatorlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlaganidek, yong'inlarning oldini olish sohasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan aholining maishiy hayotida va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida yong'inlar bilan bog'liq og'ir oqibatli noxush hodisalar ro'y bermoqda. Jumladan, 2023-yilda 10 204 ta yong'in hodisasi yuz berib, unda 251 nafar fuqaro jabrlangan, shundan 79 nafari vafot etgan, jismoniy va yuridik shaxslarga esa 270,4 milliard so'mlik zarar yetkazilgan.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda o'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish, agar yong'in chiqishiga olib kelgan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikni belgilash ko'zda tutilmoqda. Bunda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs Kodeksning 38-moddasiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etilmaydi.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda o'zgartirishlar kiritilib, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan

jazo sanksiyalarini oshirish ko'zda tutilmoqda.

Yana bir muhim jihat, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganligi tufayli uy-joy fondida odamlarning sog'lig'iga zarar yetishi yoxud o'zganing mol-mulki shikastlanishi yoki uning yo'q qilinishi bilan bog'liq bo'lmagan tarzda yong'in sodir bo'lganda mazkur shaxs yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganligi uchun ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilmoqda.

Senatorlar qonunning ma'qullanishi mamlakatimizda yong'in xavfsizligi bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan



huquqbuzarliklarning oldi olinishiga, shuningdek, uy-joy fondida o'z xonadonida yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi oqibatida ro'y bergan yong'inlar yuzasidan huquqbuzar deb topilgan fuqarolarning insonparvarlik tamoyili asosida ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdilar.

Muhokamalardan so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlaganidek, mamlakatimizda keksalarni va mehnatga layoqatsiz shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, pensiya tayinlash tartib-taomillari soddalashtirilmoqda va raqamlashtirilmoqda, ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etilib, pensiya ta'minoti tizimida davlat xizmatlari ko'rsatish sifati tubdan yaxshilanmoqda.

Shu bilan birga, fuqarolarga pensiya tayinlashda inson omilini kamaytirish, keksalarga, nogironlarga bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati yanada oshirish talab etilmoqda.

Ushbu qonun bilan "Ijara to'g'risida"gi Qonunga ijarachining nogiron bo'lib qolganligi ijaraga shartnomasini tugatish

uchun asos bo'lishini bekor qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunda pensionerga hisoblangan, lekin uning tomonidan talab qilib olinmagan pensiya summasini to'lash muddatini o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha uzaytirish nazarda tutilmoqda.

Qonunda pensiyaning eng kam miqdori eng kam iste'mol xarajatlari darajasidan oz bo'lmashligini belgilash, pensiyalar miqdorlarini yil davomida tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlarini indeks

Hujjat bilan Bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining qonuniylik, mustaqillik, adolatlilik, insonparvarlik, kamstishga yo'l qo'ymaslik, xolislik, ochiqlik va bola huquqlarining ustuvorligi kabi asosiy prinsiplari belgilanmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimiga saylanish kuni yigirma besh yoshga to'lgan va kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi 5 yil muddatda Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan saylanishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonunda Bolalar

tegishli takliflar kiritib borishi ham nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida, tergov hibxonalarida va tarbiya koloniyalarida turgan bolalar yozma shakldagi murojaatlarini Bola huquqlari bo'yicha vakilga yuborishi mumkinligi belgilanmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning qabul qilinishi bolaning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida Bolalar ombudsmanining davlat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi kuchayishiga, bolaning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy huquqlarining ta'minlanishiga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Muhokamalar yakunida qonunni ma'qullash haqida Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Senatning yalpi majlisida "Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli Konvensioniga (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Konvensiya ish beruvchilar tomonidan pul shaklida ish haqi o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga qaratilgan. Konvensiya qoidalarini ish haqi to'lanadigan yoki to'lanishi lozim bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Konvensiya iqtisodiy faoliyatning barcha sohasi va ishchilar toifalariga tatbiq etiladi.

Muhokama davomida Konvensiyada ish haqini qarz majburiyatlari, tilxat, kupon yoki boshqa shaklda, shuningdek, tarkibida alkogol miqdori yuqori organlar va spirtli ichimliklar, organizm uchun zararli giyohvandlik moddalar ko'rinishida to'lash taqiqlangani ta'kidlandi.

Senatorlar Konvensiya normalari O'zbekiston qonunchiligiga, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsad va vazifalariga to'liq mos kelishini qayd etdilar.

Muhokama chog'ida Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'shimcha kafolatlar yaratishga imkon berishi, mehnatni muhofaza qilish milliy tizimini yanada takomillashtirishga salmoqli turki berishi aytib o'tildi.

Ushbu Konvensiya jahonning 99 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Senatorlar Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mehnat sohasidagi milliy huquqchilikni takomillashtirish va xalqaro mehnat standartlarini samarali joriy etishni ta'minlashga xizmat qilishini, shuningdek, O'zbekistonning xodimlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha asosiy xalqaro prinsip va standartlarga sodiqligini ko'rsatishini alohida ta'kidladilar.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.

ISLOHOTLARNING Hozirgi Bosqichida Dolzarb Masalalar ko'rib Chiqildi

Oliy Majlis Senatining elliginchi yalpi majlisining birinchi kuni davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichi uchun dolzarb bo'lgan qator qonunlar va boshqa muhim masalalar ko'rib chiqildi. Ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati xususida senatorlar muxbirimizga quyidagilarni gapirib berdi.

Munosabat

Yangi ish o'rinlari ochgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi

Erkin GADYOEV, Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi:

— Qayerda tadbirkorlik rivojlansa, o'sha yerda farovonlik kuzatiladi va eng muhimi, kambag'allar soni sezilarli darajada qisqaradi. Agar bu sa'y-harakatlar hukumat darajasida qo'llab-quvvatlab turilsa, natijalar yanada salmoqli bo'lishi o'z-o'zidan tushunarli.

Gap shundaki, keyingi yillarda mamlakatimizda soliq imtiyozlari va preferensiyalar, xususan, soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish, pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali tadbirkorlik subyektlarini kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarga yo'naltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliqlik kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan bilan e'tiborga molik.

Qonun bilan Soliqlik kodeksiga tadbirkorlik subyektlariga ular yaratgan yangi ish o'rinlari soniga qarab tegishli soliqlarni muayyan muddatlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishini, yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i pasaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lanishini nazarda tutuvchi

qo'shimchalar kiritilmoqda. Masalan, kodeksda ko'zda tutilgan qo'shilgan qiymat, foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari barcha soliqlarni ular yaratgan yangi ish o'rinlari soniga qarab bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati beriladi.

Bundan tashqari, "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolarni ishga qabul qilgan, ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i va yer solig'idan imtiyoz beriladi.

Ko'rinib turibdiki, bu qonun ham tadbirkorlikni rivojlantirishda, ham kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin tutadi.

Bola huquq va manfaatlarini himoyasi kuchaytiriladi

Dilorom TOSHMUHAMEDOVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasida bolalar huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun zarur sharoit yaratish borasidagi sa'y-harakatlar muhim o'rin tutadi. Bugungi kunga kelib naqat bolalar majburiy mehnatni bartaraf etildi, ayni chog'da kelajagimiz egalari o'zini har jabhada namoyon qilishi uchun zarur qulayliklar yaratildi. Bunga javoban ular ilm-fanda, sportda, umuman, barcha yo'nalishda katta yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan ma'qullangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

to'g'risida"gi qonun shu yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu hujjat bilan Bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining qonuniylik, mustaqillik, adolatlilik, insonparvarlik, kamstishga yo'l qo'ymaslik, xolislik, ochiqlik va bola huquqlari ustuvorligi kabi asosiy prinsiplari belgilanmoqda.

Qonunning muhim jihatlardan biri sifatida bolaning erkinliklari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarini loyihalari Bola huquqlari bo'yicha vakil bilan kelishilishi majburiy tartib sifatida kiritilayotganini keltirish mumkin. Bu juda muhim. Negaki, shu kelishuv jarayonida vakil tomonidan bolalar manfaatlarini ilgari suriladi.

Qolaversa, Bolalar ombudsmani ma'ruzasi Oliy Majlis palatalari majlislarida har yili eshitilib boriladi. Bolalar ombudsmani bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilik buzilganini aniqlaganda, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitni bartaraf etish haqida davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar rahbarlariga taqdimnomalar kiritishi mumkin bo'ladi.

Umuman, ushbu qonun Bolalar ombudsmani faoliyatini tartibga solish bilan birga, bolalar manfaatlarini himoyasini kuchaytirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Tilsiz yov" barchamizni hushyorlik va ogohlikka undaydi

Toiljon MADUMAROV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— Xalqimiz yong'inni bejiz "tilsiz yov"ga qiyoslamaydi. U keltirishi mumkin bo'lgan oqibatlar qanchalik ayanchli bo'lishini aytmak ham, barchaga yaxshi ayon. Shu bois yurtimizda yong'inlarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Lekin, afsuski, shu sa'y-harakatlarga qaramasdan aholining maishiy hayotida va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida yong'in bilan bog'liq noxush hodisalar hamon ro'y beryapti.

Fikrimiz quruq bo'lmasligi uchun raqamlarga

murojaat qilamiz. O'tgan yilda 10204 ta yong'in yuz bergan va unda 251 nafar fuqaro jabrlangan, shundan 79 nafari vafot etgan, jismoniy hamda yuridik shaxslarga esa 270,4 milliard so'mlik zarar yetkazilgan.

Ushbu raqamlarning o'ziyoq barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga undaydi.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan ma'qullangan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun ana shu hayotiy zarurat tufayli ishlab chiqilgan.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda o'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish agar yong'in chiqishiga olib kelgan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikni belgilash ko'zda tutilmoqda. Ayni chog'da yong'in xavfsizligi bo'yicha huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladigan jazo sanksiyalarini oshirish belgilanayotir.

Muayyan yengilliklar nazarda tutilayotganini ham aytish joiz. Misol uchun, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganligi tufayli uy-joy fondida odamlarning sog'lig'iga zarar yetishi yoxud o'zganing mol-mulki shikastlanishi yoki uning yo'q qilinishi bilan bog'liq bo'lmagan tarzda yong'in sodir bo'lganda bu shaxs ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Aytish joizki, qonun yong'in xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, uy-joy fondida o'z xonadonida yong'in xavfsizligi qoidalarini buzilishi oqibatida ro'y bergan yong'inlar yuzasidan huquqbuzar deb topilgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash imkonini beradi.

Mikroqarz miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mga oshirilmoqda

Kobul TURSUNOV, Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiladigan bo'lsak,

SHE'RIYAT MULKIINING ULUG' SIYMOSIGA EHTIROM

— Bugungi bayram mamlakatimizda keyingi yillarda madaniyat, adabiyot va san'at rivojiga qaratilayotgan e'tiborning yaqqol namunasidir, — dedi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori Jabbor Eshonqulov. — Bugun ulug' shoir bobomiz so'zlarining sehri, mislsiz qudrati Adiblar xiyobonida barchamizni birlashtirib turibdi, desak, mubolag'a emas. Muzeymiz tomonidan navoiyshunoslik ishtirokida mutafakkirning "Munshaot", "Muhokamat ul-lug'atayn", Istanbulda turkiyalik olimlar bilan hamkorlikda "Badoe" ul-bidoya" asarlarining tabdili, faksimil nashrlari tayyorlandi.

Shuningdek, tadbirda Eron Islom Respublikasining Tabriz shahridan tashrif

buyurgan professor G'ulom Rizo Ramziy o'z dil so'zlarini izhor qildi. Unda so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodiyoti, shaxsiyati, g'azallarida tinchlik va do'stlik g'oyalari tarannum etilishi, shoirning Erondagi muzey va fondlarda saqlanayotgan qo'lyozmalari hamda ushbu mamlakatda hazrat Navoiy barpo ettirgan me'moriy obidalar haqida so'z bordi.

Anjumanda buyuk mutafakkir asarlaridan namunalari tinglandi. Shoir ijodi va hayotiga bag'ishlovlar o'qib berildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ta'lim olayotgan xorijlik talabalar Alisher Navoiy g'azalu ruboiylaridan namunalari o'qib bergani ham davraga o'zgaracha shukuh bag'ishlandi.

Ulug' shoir g'azallariga bastalangan kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Keng jamoatchilik ishtirokida Alisher Navoiy haykali poiyiga gul

qo'yish marosimi o'tkazilib, shoir siymosiga ehtirom ko'rsatildi.

Tantanalı tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov ishtirok etdi.

Shoir tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar poytaxtning Navoiy ko'chasidagi Shoirilar xiyobonida, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga tutash maydondagi alloma haykali poyida ham bo'lib o'tdi.

Ma'rifiy-badiiy tadbirlar, she'rxonlik, g'azalxonlik kechalari mamlakatimizning barcha hududida — ta'lim maskanlarida, bog' va xiyobonlarda, mahallalarda davom etmoqda.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi").

"Umr o'tar yeldek, o'zingni shod tut..."

Alisher Navoiy asarlarida inson umri, uning mazmun-mohiyati haqidagi fikrlar shoirning vaqt o'tishiga nisbatan o'ta ta'sirchan bo'lganini anglashga imkon beradi. Buyuk shoir bir g'azalini "Ey Navoiy, umr o'tar yeldek, o'zingni shod tut, Yelga yetmak mumkin emastur chu sur'at ko'rguzub", deya xulosalaydi.

Mushohada

Vaqtning o'tishiga bunday munosabat, albatta, kechayotgan umrga nazar tashlashga, uning g'animatligini anglashga, tahlil qilishga, o'tayotgan kunlardan mazmun topishga undaydi. Hazrat Navoiy tomonidan vaqtning bunday — keng ko'lamda idrok etilishi she'rlarida, dostonlarida yoshlik va keksalik davrlari tanosubi hamda tazodini qo'llashni taqozo etgan. Zero, ushbu ifoda vositalari, bir tomondan dunyo, borliq, tiriklik bilan uyg'unlikni, ikkinchi tomondan, inson borlig'idagi, ruhiyatidagi va uning o'zidan tashqaridagi voqe'liklar bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ziddiyatlarni, kurashni aks ettirishga imkon beradi.

"Umr fusulining qishi" deb ta'rifiyladi Alisher Navoiy keksalik davrini. Bahorga mengzaladigan bolalikdan boshlangan inson umri shoir idrokida, tasavvuru taxayulida o'z yozini, xazonlik davrini kechiradi va payti yetib qishga yuzlanadi. Ushbu manzara "Xazoyin ul-ma'oniy" devonlari ta'rifu tasnifida maromiga yetgan.

Keksalik mavzuining badiiy asarlarda tez-tez tilga olinishi, birinchi navbatda, nasihat qilish, ibrat ko'rsatish, umri munosib yashab o'tishga undash istagi

bilan bog'liq. Bu mavzuning Sharq so'z san'atida keng tarqalishi esa bu adabiyotning hikmatga, tarbiyaga, umuman, ma'rifatga asoslanganligidadir.

Alisher Navoiyning insonni hushyor torttiradigan, keksa odam ko'ngli nozikligi haqidagi quyidagi qit'asi o'quvchini inson olami haqida mushohadaga chorlaydi:

*Qarilar xotiri nozukdur, ey tifi,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustox.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinor oz mayl ko'rgandin quruq shox.*

Shoir inson hayotining mazkur davri tafsilotlarini asarlariga olib kirar ekan, ko'pincha umrning mazmun-mohiyatini anglash yo'lini tutadi, uni to'g'ri idrok etishni ko'rsatadi, g'aflatda qolmaslikka undaydi:

*Umr kuni uyquda qoldim tamom,
Emdikki uyg'andim, o'lub erdi shom.
Andaki qilmoq kerak ish, qilmadim,
Ish qila olmas kunini bilmadim.*

Hayotning har bir daqiqasini qadrlash, insonning o'z-o'zini tarbiyalashi, berilgan umrni faqat tabiiy istaklar bilan o'tkazmaslikka da'vat etish mas'uliyati ulug' mutafakkir asarlarida eng muhim masalaga aylanib ulguragan. Nuh umri bilan barobar hayot kechirganda ham tabiiy umrning o'zi

bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi, deydi shoir:

*Umr tabiiy kishiga bo'lsa kom,
Istar o'lub, har sori qilg'ay xiorom.
Umr tabiiy dema, gar umri Nuh,
Bor esa, tavfiqdin o'lmay futuh.
Yaxshiroq ul umrdin o'lmoq yiroq,
Umr nekim, andin o'lum yaxshiroq.*

Bu mavzu goh umrning yeldek o'tib ketishi, uning o'tkinchiligi afsus bilan tasvirlangan misalalarda, goh nasihatomuz baytlarda, goh keksalik va yigitlikni, umuman, keksalik va yoshlikni bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan oshiqona g'azallarda hazrat Navoiy hasratlarini hasbi holdak tushuntirishga imkon beradi. Kitobxonni keksalikning tabiiy ma'nodagi qiyinchiliklarini nozik his qilishga o'rgatadi. Shoir devonlaridagi "yigit" radifli o'nga yaqin g'azallarni yoshlik tarannumi, keksalikni qadrlash, deya baholash mumkin.

Vaqtning g'animatligini badiiy talqin etgan hazrat Navoiyning o'zi keksalik davrida katta asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Shoir umrning oxirgi yillarida yozgan asarlari orasida "Lison ut-tayr" va "Mabduh ul-qulub"ning alohida o'rni bor. Bir umrlik hayot tajribasining falsafiy umumlashmalari va ijtimoiy qarashlarining xulosalari deb baholash mumkin bo'lgan bu ikki asar Alisher Navoiy shaxsining buyukligini yana bir bor namoyish etadi.

Karomat MULLAXO'JAYEVA, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Talqin

Adovat mazammati

Alisher Navoiy ijodkorlik va arboblilik fazilatlarini o'zida birlashtira olgan noyob shaxslardan edi. Mutafakkir "Saddi Iskandariy" dostonida o'z davri nuqtayi nazaridan siyosiy qarashlarini ham ifodalagan va bu orqali davlat mustahkamligi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ko'zlagandi. Hazrat Navoiy jamiyat barqarorligi uchun zarur deb bilgan ushbu masalalar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Jumladan, dostonda ikki nomdor podshohlar — Iskandar va Duro mulohifaning tafsilotlari o'z aksini topgan. Muallif bu bobda mazkur ziddiyat bahonasida muxolifat — kelishmovchilik, adovatni jiddiy qoralaydi. Suratdan boxabar mohiyatdan bexabar kimsalar o'zaro adovat qilishi, ular dunyoni taniganlarida unga intilmas, aksincha, qochar edilar, deb ta'kidlaydi. Aslini olganda, adovat ma'nidan g'ofil kimsalarning behuda ishlari, xolos:

*Jahon ahliida yo'q vafu, ey rafiq,
Erur rifq alardin judo, ey rafiq!
Adovat bila kindur oyinlari,
Tuganmas adovat bila kinlari.*

Alisher Navoiyning fikricha, dunyoda qancha toifa bo'lsa, ularning hammasida ham adovatga mayl mavjud. Odamlarda qachon hamkorlik boshlansa, uning dushmani, albatta, kasbdoshi bo'ladi. Bir kishi biror fanda mohir bo'lsa, u haqda gap-so'z ko'payadi, bu esa, tabiiyki, u bilan kasbdoshlari o'rtasiga adovat tushiradi:

*Bo'lur kin ikovning tuniyu kuni,
Tilar bo'limg'ay — bu ani, ul muni.*

Shoirning ta'kidlashicha, bu hol davlat xizmatchilari orasida ko'proq sodir bo'ladi, chunki amir bo'lganlari noyiblik ilinjida iztirob chekadi, tumanboshilar amirlik uchun intiladi, qushbegilar esa tumanboshilik payida bo'ladi. Tepadan quyiga qadar mana shu ilinjida bir-biridan o'zish uchun kurashadilar, natijada orada g'inay nifoq yuzgacha keladi.

Xusumatning ziyoni shu qadar ko'p va yomonki, o'zidan tashqari yana ko'plab odamlarga zarar berishi mumkin. Ayniqsa, o'rta tabaqaning nizosi kuchli bo'ladi. Biroq kishilar, shaxslar kelishmovchiligi xonumoni, podshohlar kelishmovchiligi esa butun jahonni xarob qiladi. Shohlar o'rtasidagi mojaro balo dengizning chayqalishi bo'lib, bunday vaziyatda butun xalq suv ostida qoldi, deb tasavvur qilaver. Urush — g'am-anduh selidiri! Noahilchilik tufayli xonadonlar buziladi, xalq sargardon bo'ladi va otayu o'g'il, qavm-qarindosh yovlashadi. Alisher Navoiyning fikricha, oliyanob insonlarning do'stligi eng yaxshi ishdur:

*Rafiq iki darvesh, beishtiboh,
Erur yaxshiroqim, aduv iki shoh!*

Bogba ilova qilingan hikoyatda Chingizning Xorazmshohni yengib, uning yurtini o'stin-ustun qilib tashlagani, xalqqa qatli om e'lon qilgani, lekin ikki vafodor do'stning bir-biriga sadoqati tufayli qatli omning bekor qilinishi voqeasining keltirilishi ham aynan yuqoridagi xulosalarni tasdiqlaydi.

Hazrat Navoiy shu o'rinda ikki hukmdor qo'llaridan kelgunicha dunyoni buzganlari, ikki do'st esa ularning multo'g'u aksini ekanini aytib ohori muqoyasalar keltiradi. Ular dunyo uchun tig' ko'tarib qon kechsalar, bular hech vaqosiz holda, boru yo'g'i bo'lgan jonini ham bir-biriga bag'ishlashni tilaydi. Birlari dunyo havasida uning ortidan chopsa, birlari dunyo bog'liq, hamma narsadan, hatto jonlaridan ham kechishga tayyor. Aslida, bu yerda ham himmat masalasi bor. Ikki sadoqatli do'st tufayli xalqqa omonlik berilishi, mehr-oqibati, haqiqatni tanigan insonlar tufayli dunyoga saodat yetishi, hayot barqarorligiga ishora hamdir.

Aql nizoni rad etadi, ammo xalqqa behuda ziyon keltirsa, unga qarshi kurashish kerak. Alisher Navoiy tasvirlagan bu qoidalar hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Buyuk ma'rifatparvar shoirimiz ijodining mazkur jabhalarini o'qib-o'rganish esa hamisha insoniyatni ezgulikka chorlaydi, jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi, albatta.

Ilyos ISMOILOV, filologiya fanlari doktori.

REKLAMA

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

Ingliz tili kafedrası dotsenti, katta o'qituvchisi, o'qituvchisi;

Roman-german tillari kafedrası katta o'qituvchisi (ispan tili), o'qituvchisi (ispan tili);

Sharq tillari kafedrası dotsenti (xitoy tili), o'qituvchisi (koreys tili), o'qituvchisi (hind tili);

O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti (o'zbek tili), katta o'qituvchisi (rus tili);

Siyosatshunoslik kafedrası dotsenti;

Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrası professori.

Hujjatlar (ariza, fotosurat) shaxsiy varaqa, tarjimai hol, oliy ma'lumot, ilmiy daraja va unvonlar haqidagi diplomlarning nusxalari, ilmiy ishlar ro'yxati) ushbu e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida Toshkent shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 54-uy (e-mail: kadrlar_bulimi@uwed.uz, telefon: 71-267-65-40, manzilida qabul qilinadi.

Toshkent moliya instituti rektorati va kasaba uyushmasi institutining Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti Komal Mahmudovga otasi

Samad MAHMUDOVning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Tadbir

O'quvchilar Navoiy g'azallarini tabdil qilishni ham o'rganishyapti

Mir Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi munosabati bilan Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida uyushtirilgan bayram tadbirida mazkur ta'lim muassasasining bir guruhi o'quvchilari ulug' shoirimiz g'azallariga bastalangan qo'shiqlarni Sirdaryo viloyati maqom ansambli san'atkorlari bilan birga ijro etdi.

Gap shundaki, ushbu maktabda ko'plab ijodiy to'garaklar bo'lib, o'quvchilar ularda san'atning musiqa, aktyorlik, sozandalik, raqs kabi yo'nalishlari bo'yicha sohaning professional va taniqli vakillaridan saboq oladi.

— Alisher Navoiy asarlari teran falsafiy fikrlar, go'zal tashbehlar jamlamasidir, — deydi ijod maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi Mohidil Ziyayeva. — Shu bois o'quvchilarningiz buyuk shoir ijodini yanada chuqur o'qib-o'rganishlarida maqom san'ati muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir bejiz "Ko'ngli quvvati — xushnavozdin, ruh ozig'i — xushvozdin" deya lutf etmagan.

Umuman, maktabimizda buyuk shoirimiz hayoti va ijodi mavzuidagi saboqlar doimiy bo'lib, inchunin bunda nazm hamda navo shaklidagi nafasat mashg'ulotlarining samarasi

katta. Asosiysi, o'quvchilarning g'azallarni shunchaki emas, mazmun-mohiyatini chuqur tushungan holda yod olmoqda. Va bunda Navoiy asarlarining lug'atidan foydalanilyapti. Natijada o'zlarini ham g'azalu baytlarni mazmunan tabdil va tahlil qilishni o'rganmoqda. Bu borada navoiyshunos olimlar ham taklif etilib, ular tomondan mahorat darslari o'tilmoqda.

E'tiborlisi, bugun Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga yo'lingiz tushsa, sizni o'quvchi va o'qituvchilar "Assalom alaykum, bayramingiz muborak bo'lsin!" deb qarshi olishadi. Ya'ni butun xalqimiz kabi mazkur ta'lim maskani jamoasi va o'quvchilari ham ulug' shoirimizning qutlug' tavallud sanasini ana shunday bayramona shodiyonalik bilan nishonlamoqda.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

BEOZOR HAZIL VA SODDALIK

Alisher Navoiyning hayoti, do'stlari va hamsuhbatlari orasida o'tgan hazil-mutoyibalar haqida qator tarixiy manbalarda, xususan, ulug' mutafakkirning asarlarida ham bitiklar bor. Pahlavon Muhammad hazrat Navoiyning yaqin do'sti, uzoq yillik qadrdoni edi. Ulug' shoir u haqda "Holoti Pahlavon Muhammad" asarini yozgan.

Quyidagi hikoya ham o'sha asardan bugungi tilimizga tabdil qilingan holda e'tiboringizga havola etilmoqda.

Voqea

"...Alqissa, Pahlavonning turli xil yaxshi amallari, siyrat va suvratning diikashligini sharhlashga so'z ustalarining ham tili ojizlik qiladi. Qirq yil davomida u kaminaning jondek do'sti, hamsuhbati, sirdoshi bo'lib keldi. Eng og'ir damlarimdan to yorug' kunlarimga qadar yonimda bo'ldi. Biz ikkalimiz ne-ne ko'chalarda yurmadi, shu tariqa diikash insonlar davrasida o'rin oldik. Uning do'stligi, samimiyatini na aytib, na yozib ado qila olaman.

Tasavvur qiling, (Pahlavon Muhammad) mendek o'zboshincha, darvish-tabiati, turmushi parison bir kimsa bilan qirg'ul hamroh bo'lganiga qaramay, biror marta bo'lsin, dilimni ranjitgani, sal bo'lsa-da, ko'nglimga g'ubor qo'ndirganini eslolmayman. Aksincha, o'tgan yillar davomida do'stligim qalinlashib, sadoqat rishtalari mustahkamlanib bordi...

Uning zehnu zakovati, latofati, quvvai hofizasi o'tkirligi, hazilkashligi haqida bir-ikki og'iz to'xtalib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi. Sulton Abusaid mirzo zamonida Xuroson

ahli Samarqandga tobe edi... Kamina muhtojlik, boshimga tushgan musibatlar, taqdir va ranj-alamlar sababli Mashhadga ravona bo'ldim. Shu yerda mafosil (bo'g'imlarning zirqirab og'irishi) kasaliga chalindim va bir kulbada yotib qoldim. O'sha paytda Pahlavon Muhammad ham Mashhadga xizmat qilardi. Ahvolimdan xabar topgach, to oyoqqa turib ketgunimcha har kuni yonimga hol so'ragani kelib, menga do'stona g'amxo'rlik ko'rsatdi. O'sha kezlari ancha dovruq qozongan, rahmatli Abudusalom Sheroziy ismli bir hakim meni davoladi. Tabiblar odatda bemorni davolab oyoqqa turg'izganlaridan keyin teri ostida qolib ketgan xiltlar, zararli moddalarni tarqatib yuborish uchun dalk (massaj) olishni buyurishadi. Hakim menga ham shuni tavsiya qildi.

Pahlavon Muhammad ham tabobatdan birmuncha xabardor, xususan, dalk borasida ham unga yetadigani yo'q edi. Pahlavon mehribonlik va shafqat yuzasidan har kuni kulbanga kelib, o'zi meni mulajja qila boshladi. O'sha kunlarda ertalab bitta g'azal yozgandim. Uning birinchi bayti quyidagicha:

*Har qayon boqsam,
yuzumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar,
ul oy manga manzur erur.*

Yetti baytli bu g'azalni oqqo ko'chirgan, qog'ozni buklab, cho'ntagimga solib qo'ygandim. Hali uni hech kimga ko'rsatmagan, birovg'a o'qib bermagandim. Pahlavon belgilangan vaqtda kelib, kiyimimni yechib, yelkalarimni uqalay turib, gap boshladi:

— Aytishlaricha, sen turkiy tilda yaxshi she'rlar yozarmishsan. Ko'pchilik turkiy nazm ixosamandlari eshitib yuribman. Senga bir savolim bor.

— Qanaqa savoling bo'lsa, so'rayver, — dedim.

— Shu paytgacha turkiy shoirlar bitgan she'rlardan qay biri eng yaxshisi? Ularning qay biri senga ko'proq yoqadi?

— Hammasi yaxshi, menga hammasi yoqadi, — dedim.

— Olifalik va kamtarinlikni qo'y. Bo'ladigan gapni gapir, hammasi birdek yaxshi bo'lavermaydi-ku? Baribir farqi bor-ku?

— Hozir bu borada Mavlono Lutfiyga yetadigani yo'q, ul zot turkiy so'zning podshohidir.

— Unda Sayid Nasimiy-chi?

— Negadir esimga kelmabdi. Qolaversa, Sayid Nasimiy she'riyat boshqa olam. Uning she'rlari boshqa ko'plab shoirarning ijodi singari zohiriy mazmunga ega emas, balki u haqiqiy ishq haqida yozgan. Sen majoziy ishq haqida she'r bitadigan shoirilarni so'radim, deb o'ylabman.

— Sayid Nasimiy she'riyatı turganida Mavlono Lutfiyni tilga olishing qiziq, — deya kinoya bilan e'tiroz bildirdi Pahlavon. — Nasimiy shaklan majoziy ishq haqida yozgandek ko'rinsa-da, mazmunan haqiqat ishqı haqida bitgan.

U shunday deb ertalab o'zim yozgan g'azalni so'zma-so'z tartib bilan o'qiy boshladi. G'azal quyidagi bayt bilan yakunlanardi:

*Gar Navoiy siymablar
vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevhunki,
xom etgan kishi ranjur erur.*

Faqat Pahlavon baytdagi "Navoiy" so'zini "Nasimiy"ga o'zgartirib o'qidi. Nazarimda, baytga Navoiydan ko'ra Nasimiy taxallusi munosibroqdek ko'rinaridi. Men hayron bo'ldim. Sekin kiyimim ustidan cho'ntagimni paypaslab ko'rdim: qog'oz joyida turibdi. Hayratim yanada ortdi. Bu paytda Pahlavon g'azalni qaytadan o'qiy boshlagan edi. Sabrim chidamay, bu holatning sababi bilan qiziqdim. U esa sir boy bermadi va o'z so'ziga ishonitirishga urindi. U bilan bahsimiz chuqurlasha bordi. Nihoyat:

— Bu she'rni yodlaganingga qancha bo'ldi? — deb so'radim.

— O'n ikki yilcha bo'ldi. Abulqosim Bobur she'riy majlislarida bu she'r ko'p tilga olinardi. O'sha paytlar menga ma'qul tushib, yodlab olganman.

Xullas, o'sha kun o'tdi. Pahlavon o'z yotog'iga ketdi. Ertasiga yana mendan xabar olish uchun keldi. Yana gap borib kechagi g'azalga taqaldi. "Axir bu she'rni men yozganman,

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Mushahh Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.45 Topshirildi — 23.35 1 2 3 4 5 6